



## MILLIY QADRIYATLAR TIZIMI VA ULARNING JAMIYAT HAYOTIDA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI

**Ergashev Ulug'bek Adxamovich**

Farg'ona politexnika instituti

“O'zbekiston tarixi va ijtimoiy fanlar” kafedrasida assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6590874>

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada jamiyatimiz hayotida milliy qadriyatlarning namoyon bo'lish hususiyatlari, qadriyatlarning turlari, qadriyatlarning inson hayotida tutgan o'rni ta'kidlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** qadriyat, jamiyat, halq, ahloq, taraqqiyot, istiqlol, inson, fikr.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье освещаются особенности проявления национальных ценностей в жизни нашего общества, виды ценностей, роль ценностей в жизни человека.

**Ключевые слова:** ценность, общество, народ, этика, развитие, самостоятельность, человек, мысль.

**ANNOTATION:** This article highlights the features of the manifestation of national values in the life of our society, the types of values, the role of values in human life.

**Key words:** value, society, people, ethics, development, independence, man, thought.

Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida ijtimoiy hodisalarga munosabat xilma-xil tarzda namoyon bo'ladi. Xususan, mustaqilligimizning birinchi kundan boshlab hayotimizning barcha jabhalarida “qadriyatlar”, “milliy tiklanish”, “milliy ong”, “milliy g'urur”, “milliy iftixor” kabi tushunchalar tez-tez ishlatiladigan bo'lib qoldi. Bu bejiz emas, zotan, mustaqillik ayni paytda milliy tiklanish hamdir.

Istiqlol xalqimizga so'z va fikr erkinligi bilan bir qatorda ilgari ishlatilib kelgan ko'pgina milliy tushunchalarni qaytardi. Endilikda “qadriyatlar”, “mustaqillik”, “istiqlol”, “milliy iftixor” kabi tushunchalar o'zining asl mazmuniga ega bo'lmoqda. Shuni mamnuniyat bilan aytish kerakki, mazkur atamalarining hayotimizga kirib kelishi va qisqa vaqt ichida teran ildiz otib ketishida muhtaram birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning xizmatlari katta. Uning asarlari va nutqlarida mustaqillik tufayli hayotimizning barcha sohalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, jumladan



milliy qadriyatlarimiz, madaniyatimiz, urf-odat, an'analarimizning tiklanishi, milliy g'ururimiz, milliy o'zligimizni anglashimizning tobora yuksalayotganligi faxr, iftixor bilan qayd qilinib kelmoqda. «Xalqimiz sarchashmalarining ko'zlari qaytadan ochilganligi, - deb yozadi I.Karimov, - jahon madaniyati yutuqlariga zo'r hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy merosi teranligi va chuqurligi anglab olinganligi, har bir avlodning o'z o'tmishiga, oliyanob milliy va diniy an'analariga hurmat bilan qarash, ularni asrab avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi, ayni chog'da hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi va ularga oshno bo'lish zarurligi ravshan anglab etilganligi mana shularning hammasi hayotbaxsh bir zamindirki, bizning yangilanish va xalqimizning milliy o'zligini anglashini oshirish, aholining siyosiy yetukligi va faolligini kuchaytirish borasidagi siyosatimiz mana shu zaminga tayanadi».

Xo'sh, qadriyatlar o'zi nima? Ularning mohiyati, asosiy jihatlari nimadan iborat? Eng avvalo, shuni qayd qilish kerakki, qadriyatlar juda sermazmun va ko'p qirrali tushunshadir. Shuning ushun ham adabiyotlarda mazkur tushunshaning mohiyatini ifodalashda turlicha yondashuvlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, "Falsafiy ensiklopediya"ning beshinchi jildida qadriyatlar quyidagicha tavsiflangan: "Qadriyat falsafiy va sotsiologik tushunsha. U, birinchidan, biror ob'ektning ijobiy yoki salbiy qimmatini, ikkinshidan, ijtimoiy ongning meyorini belgilovchi jihati (sub'ektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi. Shunga ko'ra ob'ektiv (ashyoviy) va sub'ektiv (ong) qadriyatlari bir biridan farqlanadi".

Mazkur manbada yozilishicha, tabiiy boyliklar va tabiat hodisalari (bular yaxshilik va yomonlik nuqtai nazaridan baholanadi) mehnat mahsullarining iste'mol qiymati (umuman foydalilik); ijtimoiy hodisalarda mujassamlashgan ijtimoiy ezgulik va yovuzliklar; tarixiy hodisalarning progressiv yoki reaksiyon ahamiyati, hozirgi zamon kishilarining boyligi sifatida namoyon bo'luvchi madaniy merosi, ilmiy haqiqatning foydali samarasi yoki nazariy ahamiyati, kishilarning hatti harakatlarida ifodalanuvshi ahloqiy, yaxshilik yoki yomonlik, tabiiy va ijtimoiy ob'ektlarning hamda san'at asarlarining estetik jihatdan tavsiflanishi, sajdagohlar, diniy ibodat buyumlari va boshqalar ashyoviy qadriyatlarga kiradi.

Ong qadriyatlariga me'yoriy tasavvurlar (yaxshilik va yomonlik, adolat, go'zallik va xunuklik haqidagi, tarixning ma'nosi va insonning vazifasi haqidagi tasavvurlar, ideallar, harakat me'yorlari



va tamoyillari tarzida ifodalangan ijtimoiy ko'rsatmalar va baholar, talab va ta'qiqlar, maqsad va loyihalar kiradi.

Ko'rinadiki, "Falsafiy ensiklopediya" da ruscha "sennost" tushunchasiga kishilar tomonidan yo ijobiy, yo salbiy baholanadigan, ularning moddiy va ma'naviy hayotiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan barcha narsa va hodisalarni ifodalaydi. Qadriyatlarni mazmuni va xarakteriga ko'ra progressiv va reaksiyon tiplarga ajratish mumkin. Bu esa, mazkur kategoriyani o'ta sig'imdor qilish bilan birga uni izohlashni mushkullashtiradi. Turli chalkashliklar keltirib chiqaradi.

Shu jihatdan taniqli faylasuf olim V.P.Tugarinovning fikri e'tiborga loyiqdir: "Qadriyatlar muayyan jamiyat yoki sinfga mansub kishilar turmushi va madaniyatining haqiqiy yoki ideal ne'matlari bo'lgan tabiat va jamiyat hodisalarining mohiyati (yoki hodisaning bir jihati)dir. Bu ne'matlarning qadriyatlar deyilishiga sabab kishilar ularni qadrlaydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi. Shuning uchun ham kishilar o'z tasavvurlaridagi qadriyatlarni ximoya qiladilar va o'zlari uchun maqsad yoki ideal bo'lgan qadriyatlarni amalga oshirishga intiladilar. Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiy hayotning o'zidir, chunki hayotdan mahrum bo'lish qolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yo'qqa chiqaradi. Qadriyatlarining boshqa turlari, aslini olganda, hayot ne'matlarining mohiyatidir, madaniy qadriyatlardir".

Qadriyatlarining hayotdagi o'rni va ahamiyati baholash tufayli belgilanadi. Baholash esa, insonlarning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, qiziqishlaridan kelib chiqadi. Ma'lumki, jamiyat a'zolarining ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari xilma-xil bo'lib, ko'pincha ular bir biriga zid kelishi mumkin. Shuning uchun ham muayyan ijtimoiy guruhlar, millatlar, sinflar uchun oliy qadriyat bo'lib hisoblanib kelingan tabiat va jamiyat hodisalari boshqalar ushun qadriyat bo'lmasligi ham mumkin va aksincha.

Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr qimmatini haqida so'zlash mumkin emas. Shuning uchun ham inson qadr qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini ximoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning barchasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini



chinakam erkin his etishi, o'z mehnati natijasining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir.

Istiqlol tufayli respublikamizda insonning shaxsiy huquqlari, erkinliklari va qadriyatlarini muxofaza qilish masalasida juda katta ishlar amalga oshirildi. Imzosiz xatlar yozish, bo'hton, tuhmat uyushtirish yo'li bilan kishilarni nohaq bezovta qilish, ularning qadr-qimmati va or-nomusiga tajovuz qilishlar mamlakatimizda qonun yo'li bilan ta'qiqlangan. Asosli, adolatli tanqid ushuni o'sh olishga harakat qiladigan shaxslar, kimligidan qat'i nazar, jinoiy javobgarlikka tortiladi. Vazifasini suiste'mol qilgan mansabdorlar g'ayriqonuniy xatti harakatlari uchun qonun oldida javob beradi.

Nogironlar, ruhiy kasalmand kishilar, mehnat qobiliyatini yo'qotgan, boquvchisidan mahrum bo'lganlar, yolg'iz ayollar, qariyalarning xaq- huquqlari davlat yo'li bilan muxofaza qilinadi, ularga moddiy, ma'naviy yordam ko'rsatiladi. O'zbekiston Respublikasi qonunlari fuqarolar or nomusi, qadr-qimmatini saqlash va muxofaza etishga muhim vazifalardan biri sifatida qaraydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasiga muvofiq fuqarolar o'z hayotlari va sog'liklariga, mulklariga va shaxsiy erkinliklariga, or-nomuslariga va qadr-qimmatlariga tajovuzlardan sud orqali ximoya qilinish huquqiga egadirlar.

Inson ehtiyojlarini qondirishda tabiiy qadriyatlar katta ahamiyat kasb etadi. Tabiiy qadriyatlarga yer va yer osti boyliklari, suv, havo, o'rmonlar, o'simliklar, xayvonot dunyosi va boshqalar kiradi.

Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston zamini xilma-xil qazilmalarga boy. Yer yuzasiga yaqin yotgan qazilmalarning aksariyati topilgan va ular xalq xo'jaligi, fan va texnika taraqqiyoti uchun xizmat qilmoqda. Shu bilan birga hali ochilmagan, ro'yobga chiqmagan konlar ham ko'p. Bu konlarning juda oz qismi bevosita yer yuziga chiqqan bo'lsa, aksariyati yer ichkarisida yashirinib yotibdi. Iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy xom ashyo uyumlari, foydali qazilmalar O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi, uning asosiy qadriyatlaridandir. O'zbekiston behisob tabiiy boyliklarga, qulay jug'rofik muxitga ega.

Tabiat tabiiy resurslar manbaidir. Tabiiy resurslar, ya'ni yonilg'i, turli metallar, rudalar, havo, suv, o'simliklar, xayvonot dunyosi bo'lmasa insoniyat yashay olmaydi. Tabiat biz uchun moddiy ne'matlarning bosh manbai sifatida ham, sog'lik, shodlik, turmushga mehr-muxabbatning va har



bir kishidagi ma'naviy boyliklarning bitmas-tuganmas omili sifatida ham o'zining g'oyat zo'r ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azimov U., Umurzakov A. GLOBAL PROBLEMS AND GENERAL VALUES. – 2020.
2. Jergashev U. A., Urinbaeva M. S., Umurzakov A. M. Rynok i nrvastvennost //Problemy sovremennoj nauki i obrazovaniya. – 2019. – №. 10 (143).
3. Ergashev U. A., Umurzakov A. M. THE IMPACT OF ENVIRONMENTAL ISSUES ON HUMAN LIFE //Экономика и социум. – 2020. – №. 8. – С. 26-29.
4. Умурзаков А. М. Влияние различных факторов на процесс обучения студентов //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 12-2 (145). – С. 176-178.
5. Ergashev U. A., Urinbaeva M. S., Umurzakov A. M. Market and morality.
6. Ergashev U. A., Umurzakov A. M. Problems of the impact of environmental problems on human life //Экономика и социум. – 2020. – №. 8. – С. 22-25.
7. Умурзаков А. М. ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ВЕРЫ //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-2. – С. 507-510.
8. Azimov U., Umurzakov A. HIERARCHY OF VALUES AND PERSONAL VALUES //Экономика и социум. – 2021. – №. 1-1. – С. 354-355.
9. Умурзаков А. М. ДИНИЙ ФАНАТИЗМ ВА ЭЪТИҚОД МАСАЛАЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 1563-1567.
10. Хошимов С. С. ВАН ЯН МИН ФАЛСАФИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ВА ГНОСЕОЛОГИК ҚИРРАЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2020. – №. 3. – С. 771-776.
11. Khoshimov S. S. THOUGHTS ABOUT HUMAN NATURE IN CHINESE PHILOSOPHICAL THINKING AND THEIR INTERPRETATION IN THE IDEAS OF WANG YAN MIN //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 1. – С. 173-177.
12. Олтамишева Н. Г., Эргашев У. А. Нравственное сознание и поведение молодежи в современных условиях //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 11-1 (144). – С. 112-114.





13. Ergashev U. A. Relationship with religion in Uzbekistan //Экономика и социум. – 2020. – №. 5-1. – С. 37-39.
14. Ergashev U., Khakimov A. Environmental problems in the works of eastern thinkers //Экономика и социум. – 2020. – №. 8. – С. 30-32.
15. Эргашев У. А. ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ИММУНИТЕТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ АСОСИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 1765-1768.
16. Ergashev U. A., Juraeva N. N. Qualities revered by Amir Temur //Экономика и социум. – 2020. – №. 5-1. – С. 40-42.
17. Эргашев У. РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО СЛОЯ СОБСТВЕННИКОВ В ФОРМИРОВАНИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА //Збірник наукових праць Л'ОГОС. – 2021.
18. Ergashev U. A., Hakimov A. M. MYSTICISM-SPIRITUCL-MORAL UPBRINGING //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-1. – С. 133-136.
19. Ergashev U. A., Hakimov A. M., Usmonova M. A. THE PHENOMENON OF JUSTICE IN YOUTH EDUCATION AND ITS CHARACTERISTICS //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-1. – С. 130-132.
20. Хакимов А. М., Эргашев У. А., Холмирзаева Ж. Х. Выборы Узбекистана – прозрачные выборы. – 2020.
21. Тўхтаров И., Эргашев У., Умурзақов А. МАФКУРАВИЙ ОМИЛЛАР ВА ЁШЛАР ТАФАККУРИ //Yosh Tadqiqotchi Jurnal. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 94-100.
22. Xoshimov Sanjarbek Sultonbekovich. (2022). GLOBALLASHUV JARAYONIDA SIYOSIY MADANIYATNING O'ZIGA XOSLIGI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6483612>
23. Tuhtarov I. et al. Kant's pedagogy and contemporaneity //Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation. – 2021. – Т. 32. – №. 2. – С. 1633-1636.
24. Adhamovich E. U. Development of Philosophical Views in Central Asia //Kresna Social Science and Humanities Research. – 2022. – Т. 3. – С. 189-192.
25. Эргашев У. А. РОЛЬ УЧИТЕЛЕЙ-НАСТАВНИКОВ В ОСМЫСЛЕННОМ ПРОВЕДЕНИИ ДОСУГА СТУДЕНТОВ //ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. – 2021. – С. 150-153.



26. Қосимов К. И., Эргашев У. А. CHARACTERISTICS OF EASTERN DEMOCRACY AND CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN //Экономика и социум. – 2021. – №. 3-2. – С. 76-79.
27. Jergashev U. A., Urinbaeva M. S., Umurzakov A. M. Rynok i npravstvennost //Problemy sovremennoj nauki i obrazovaniya. – 2019. – №. 10 (143).
28. Умурзаков А. М. ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ВЕРЫ //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-2. – С. 507-510.
29. Azimov U., Umurzakov A. HIERARCHY OF VALUES AND PERSONAL VALUES //Экономика и социум. – 2021. – №. 1-1. – С. 354-355.
30. Умурзақов А. М. ДИНИЙ ФАНАТИЗМ ВА ЭЪТИҚОД МАСАЛАЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 1563-1567.
31. Хошимов С. С. ВАН ЯН МИН ФАЛСАФИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ВА ГНОСЕОЛОГИК ҚИРРАЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2020. – №. 3. – С. 771-776.
32. Khoshimov S. S. THOUGHTS ABOUT HUMAN NATURE IN CHINESE PHILOSOPHICAL THINKING AND THEIR INTERPRETATION IN THE IDEAS OF WANG YAN MIN //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 1. – С. 173-177.
33. Ergashev Ulug'bek Adxamovich. (2022). "OMMAVIY MADANIYAT" NING MILLIY QADRIYATLARIMIZGA TA'SIRI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6483621>
34. Umurzaqov Axmadjon Mahamadovich. (2022). GLOBALLASHUV DAVRDA FAN VA TA'LIMNING DOLZARB MASALALARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6483608>
35. Xoshimov Sanjarbek Sultonbekovich. (2022). GLOBALLASHUV JARAYONIDA SIYOSIY MADANIYATNING O'ZIGA XOSLIGI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6483612>